

Xushxabar- "Navoiyazot" AJning rahbar-xodimi "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi!

// 27.08.2024

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-navoiyazot-ajning-rahbar-xodimi-shuhrat-medali-bil>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz uch yilligi munosabati bilan davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlaridan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ahamiyatlisi, Mustaqilligimizning 33 yillik bayram shodiyonasi arafasida e'tirof etilgan fidoiy yurtdoshlarimiz qatorida "Navoiyazot" Aksiyadorlik jamiyatining Polivinilxlorid, kaustik soda va metanol ishlab chiqarish majmuasi sexi boshlig'i o'rinbosari Asatov Kamoliddin Ubaydulloyevich "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi!

Kamoliddin Asatov 1985-yili Navoiy shahrida tavallud topgan. 2005-yildan buyon "Navoiyazot" korxonasida mehnat qilib kelmoqda.

"O'zkiyosanoat" AJ jamoasi Kamoliddin Asatovni yuksak mukofot bilan muborakbod etadi hamda uning kelgusi ishlariga ulkan zafarlar tilaydi!

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati